



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



## MEDIAMADANIYATNING IJTIMOIIY-FALSAFIY JIHATLARI

**Amirov Azamat Odil o'g'li**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Ismatova Sarvinoz Alisher qizi**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada hozirgi raqamli axboratlashgan davrda dolzarb mavzulardan biri bo'lgan mediamadaniyatning ham ijtimoiy, ham falsafiy jihatlari atroflicha tahlil qilib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *mediamadaniyat, integratsiya, axborot xavfsizligi, ijtimoiy jihat, falsafiy jihat.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье всесторонне проанализированы как социальные, так и философские аспекты медиакультуры, являющейся одной из актуальных тем в современную эпоху цифровой информатизации.*

**Ключевые слова:** *медиакультура, интеграция, информационная безопасность, социальный аспект, философский аспект.*

### ANNOTATION

*This article comprehensively analyzes both the social and philosophical aspects of media culture, which is one of the most relevant topics in the modern era of digitalization.*

**Keywords:** *media culture, integration, information security, social aspect, philosophical aspect.*

Zamonaviy madaniyatga fan va texnika rivoji bevosita va bilvosta ta'sir ko'rsatdi, natijada madaniyatning yangi shakli bo'lgan mediamadaniyat paydo bo'ldi. Mediamadaniyat o'z taraqqiyotida mazmunan serqirra va murakkab tuzilmaga ega bo'lib bordi, ya'ni mazmunan va hajman boyidi.

Mediamadaniyat zamonaviy texnologiyalar asosida shakllangan bo'lib, shiddat bilan rivojlanayapti va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Mediamadaniyat murakkab tuzilishga ega bo'lib, uning tarkibiga mediamuhit, mediamakon, mediaaxborot, mediamatn, mediata'limlar kiradi.

Mediamuhit axloqiy-estetik, ijtimoiy-siyosiy axborotlarni yetkazish, odamlarning ma'nan va ruhan dam olishiga yordam berish, tashviqot qilish, shuningdek jamiyatga mafkuraviy, axloqiy, estetik, siyosiy, ma'naviy, psixologik ta'sir o'tkazish jarayonlarini qamrab oladi. Mediamuhitda shaxs va atrof-muhit o'rtasida o'ziga xos muloqot o'rnatiladi. Mediamadaniyatni shakllanish tarixida mediamuhit asosiy rol o'ynagan. Shuning uchun ham ko'plab tadqiqotchilar mediamuhitni o'rganishga harakat qilganlar.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Mediamakon esa elektron kommunikatsion vositalari yordamida yuzaga keltiriladigan makon bo‘lib, bunda bir va bir necha taraflar bir vaqtda yoki ketma-ketlikda o‘z ma‘lumotlarini mediamakonga joylashtirish, uzatish va qabul qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Bunda axborot uzatishning turli zamonaviy elektron vositalari ishlatiladi. Axborotlar turli holda uzatilishi mumkin: ochiq yoki yopiq, so‘zlar, belgilar, fototasvirlar, videotasvirlar, ovozli yozuvlar, taqdimotlar.

Mediaaxborot – elektron kommunikativ vositalari yordamida uzatiladigan ma‘lumotlar tizimi hisoblanadi. Ularning hajmi keng va uzatilish vaqti juda tezlikda amalga oshiriladi. Mediaaxborotlarni saralash deyarli mumkin emas. Sababi, barcha insonlar dunyoning qayerida bo‘lishidan qat‘iy nazar axborot joylashtirish va uzatish imkoniyati va huquqiga ega. Ma‘lumotlar muallifning dunyoqarash darajasi kengligi, ehtiyoji, manfaatlari, turli maqsadlari kabi omillarga tayanadi. Shunga asosan yovuz va ezgu, yaxshi va yomon, foydali va foydasiz, ijobiy va salbiy, bunyodkor va vayronkor, xolis – noxolis, chin va yolg‘on kabi turlarga ajraladi. Shunga mutanosib holda, ijtimoiylikka ham turlicha ta‘sir ko‘rsatadi.

Mediata‘lim anglangan jarayon bo‘lib, obyekt va subyekt o‘rtasida yuzaga keladi, mediamuhit va mediamadaniyatning rivojlanishiga eng katta ta‘sir ko‘rsatadi. Mediata‘lim masofaviy tarzda amalga oshiriladi. Bunda turli platformalar yordamida ta‘lim jarayoni tashkil etiladi.

Mediamatn – axborotlarning shakli. Ular ovozli, turli belgilar shaklida, yozma, og‘zaki, rasmi, videotasvirli, fototasvirli, musiqali va h.k.lar tarzida bo‘lishi mumkin. Hajmi uzun–qisqa, ma‘noli, she‘riy, matnli, xolis–noxolis bo‘lishi mumkin.

Media madaniyati tarixini davrlashtirish, umuman milliy va mintaqaviy darajalarda, ularning integratsiyalashuv va globallasuv muammolariga differensial yondashib, hal qilishda konstruktiv usullar, ratsional vositalarini topishni taqozo qiladi.

Media madaniyatining stixiyali, primitiv xarakteri, kundalik ong darajasidagi moddiy–ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan an‘anaviy ijtimoiy–iqtisodiy munosabatlar xarakteriga mos antropogen axborot madaniyati texnologiyasini vujudga keltirgan.

Media madaniyati maqomi va funksional ahamiyatini turli fanlar tarixini axborot media madaniyati kontekstida kompleks–sistemali va faktorial o‘rganish, konkret bilim sohalari shakllanishiga, ularning integratsiyalashuvi va “kooperatsiyalashuviga” olib keladi.

Media madaniyati integratsiyalashuvi va globallasuvi jarayonlarining milliy, hududiy xususiyatlarini, ijtimoiy–siyosiy, g‘oyaviy–nazariy va tashkiliy asoslarini kompleks–sistemali tahlil qilish konkret fanlar kontekstida differensial yondashuvni istisno qilmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ablazov E.E. Mediamadaniyat tushunchasi va uning XXI asrda tutgan o‘rni / <https://cyberleninka.ru/article/n/mediamadaniyat-tushunchasi-va-uning-XXI-asrda-tutgan-or-ni>



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



2. Xurshid Do'stmuhammad. Axborot madaniyati – hayot mamot masalasi / <https://xs.uz/uzkr/post/akhborot-madaniyati-hayot-mamot-masalasi>.
3. Abdullayev M.R. Mediamadaniyatning shaxs hayotida tutgan o'rni / <https://cyberleninka.ru/article/n/mediamadaniyatning-shaxs-hayotidatutgan-o-rni>

